

## **1-lecture. Introduction**

### ***1-Ma'ruza: KIRISH.***

#### ***Reja:***

- 1. Fanning maqsadi va vazifalari.***
- 2. Yangi mashinalarni yaratish bosqichlari.***
- 3. Yangi mashinalarni yaratishda sinovlarning o'рни***

#### ***1. Fanning maqsadi va vazifalari.***

«Avtomobil va traktorlarni sinash asoslari» fanini o'qitishdan maqsad «Avtomobilsozlik va traktorsozlik» bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalarining o'rganish ob'ektlari-traktorlar va avtomobillarni sinash orqali ularning texnik darajasi va ish sifati ko'rsatkichlarini aniqlash va taxlil qilish bo'yicha bo'lajak bakalavrlarga bilim va malaka berish orqali ularning muxandislik ijodiy imkoniyatlarini yanada kengaytirishdir.

«Avtomobil va traktorlarni sinash asoslari» fanining vazifalari quyidagilardan iborat:


-avtomobillar va traktorlarni (keyinchalik mashinalarni) sinovlari turlari, ularga oid meyoriy xujjatlarni, sinov natijalariga ko'ra mashinalarni baxolash turlari va ularni amalga oshirish dasturlari va uslubiyatlarini o'rganish va o'zlashtirish;

-mashinalarni sinash jarayonida qo'llaniladigan texnik vositalar, tajriba qurilmalari, stendlar va informatsion-o'lchash tizimlarni o'rganish va ulardan foydalana bilish;

-mashinalarni yoki ularni ayrim agregatlari va ishchi organlarini sinash dasturini va metodikasini o'rganish va o'zlashtirish.

#### ***2. Yangi mashinalarni yaratish bosqichlari***

Yangi mashinalarni yaratish yoki mavjudlarini takomillashtirish murakkab ko'p bosqichli jarayon bo'lib, u ilmiy tadqiqot institutlari, konstruktorlik tashkilotlari, ishlab chiqarish korxonalari va mashina sinash markazlari tomonidan amalga oshiriladi. Yangi mashinani yaratish jarayoni buyurtmachi va shu mashinani ishlab chiqishga jazm qilgan korxonalar birgalikda tayyorlaydigan asosiy boshlang'ich hujjat-texnik topshiriqdan boshlanadi.



1-rasm. Yangi mashinani yaratish bosqichlari va ularda qo'llaniladigan sinovlar turlari

### 3. Yangi mashinalarni yaratishda sinovlarning o'rni.

Avtomobillar va traktorlarni sinash—ularning texnik darajasi va ish sifati ko'rsatkichlarini yaratilish bosqichidan to foydalanishdan chiqarilguncha muddatlarda xar tomonlama ob'ektiv baxolash va mashinalarga qo'yilgan turli (agrotexnik, texnologik, va b.) talablarga qanchalik mosligini laboratoriya va dala sharoitida o'tkaziladigan tajribalarda tekshirishdir.

*Sinovlarning maqsadi*-sinalgan na'munalarni ishlab chiqarishga taqdim qilish, ishlab chiqarilayotganlarini sifatini nazorat qilish, seriyalab ishlab chiqarilayotganlarni modernizatsiya qilish va eskirgan maxsulotlarni ishlab chiqarishdan olish, import qilingan maxsulotlarni maxalliy sharoitga mosligini sertifikatlash xaqida tavsiya va xulosalar tayyorlash.